

“Uchinchi renessans – ma’rifatli jamiyat sari” mavzusida uslubiy seminar

PRESS RELIZ

10-11-noyabr kunlari Agentlik tizimidagi ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli va yana-da samarador tashkil etish yuzasidan ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari hamda psixologlar uchun “**Uchinchi renessans – ma’rifatli jamiyat sari**” mavzusida uslubiy seminar tashkil etildi.

Hozirgi jadal taraqqiyot – bugun tarbiyalanayotgan yosh avlodning kelgusidagi ma’naviy-axloqiy qiyofasini, shaklu-shamoyilini shakllantirishni taqozo etadi. Bunday sharafli vazifa yurtimizda **uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi** orqali amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Shu sababdan, Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan **ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, psixologlar hamda tarbiyachi-pedagog va sinf rahbarlari uchun uslubiy qo‘llanmalar** tayyorlanib, chop etildi. Ushbu uslubiy qo‘llanmalar ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil qilish, dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvar, barkamol avlodni tarbiyalash tamoyillarini o‘rganish va o‘rgatish yuzasidan tayyorlangan.

Uslubiy seminar davomida:

✓Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari uchun uslubiy qo‘llanma

✓Ta’lim muassasalari psixologlari uchun uslubiy qo‘llanma

✓Tarbiyachi-pedagoglar va sinf rahbarlari uchun uslubiy qo‘llanmalarining taqdimoti ham o‘tkazildi.

Seminarda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi targ‘ibotchisi, falsafa fanlari doktori, professor **Jamila Shermuxamedova**, Toshkent Davlat universiteti professori, yuridik fanlari doktori **Feruza Muxitdinova**, O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi direktori **Liliya Gaynutdinova** hamda markaz psixologlari ma’ruzachi sifatida ishtirok etishdi.